

## BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGI VA UNING TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

**Muminova Asalxon Yakubovna**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarida bank aktivlari samaradorligi hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan. Ushbu tezisda tijorat banklari aktivlarini samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** Bank aktivlari, qiymatli qog'ozlar, kredit,mikroqarz ,pul mablag'lari,naqd pul, overdraft,likvidlik,

### **Kirish**

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida aholining yirik qismi, davlat va davlat tashkilotlari, korporativ mijozlar va boshqa barcha tashkilotlar tijorat banklarining xizmatlaridan foydalanadilar.

Tijorat banklari aktivlarining samaradorligini oshirish bankning barqarorligini ta'minlashva rentabellikni oshirish uchun muhimdir. Aktivlarni samarali boshqarish orqali banklar nafaqato'z foydasini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham hissa qo'shamdi. Kredit portfelidiversifikatsiya qilish, qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish, risklarni boshqarish tiziminitakomillashtirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali tijorat banklari o'z aktivlaridan samarali foydalanishlari mumkin. Bank faoliyati samaradorligi va iqtisodoy tamoyillarga amal qilishi qancha yuqori bo'lsa, u shunchalik ko'p foyda ko'radi va natijada barqaror moliya institutga aylanadi. Shuning uchun bank faoliyati samaradorligini oshirish har qanday ijtimoiy rivojlanish darajasida har bir davlatda muhim vazifa hisoblanadi.

### **Mavzuning dolzarbliги**

Bank aktivlari deganda, bankning moliyaviy resurslari va mulki tushuniladi, ular pul mablag'lari, kreditlar, investitsiyalar, qiymatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarni o'z ichiga oladi. Aktivlar bankning asosiy ish yuritish vositasi bo'lib, ularning sifatli va samarali boshqarilishi bankning barqaror ishlashi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shuning uchun bank aktivlarining samaradorligini baholash va ularni yanada takomillashtirish masalalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Aktivlar — kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, olinishi lozim bo'lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatları, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar,

kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud .

Bank aktivlarining asosiy turlari:

- 1.Naqd pul va kassadagi mablaag'lar
- 2.Qisqa muddatli investitsiya
- 3.Kreditlar(qarzlar)
- 4.Qimmatli qog'ozlar
- 5.Asosiy vositalar.

Aktivlar sifatini tasniflash va ularni bank balansida aks ettirish bank va qarzdor o'rtaida tuzilgan shartnomalarini o'zgartirmaydi, shu jumladan shartnomalariga muvofiq bank tomonidan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni, shuningdek shartnomalarini bajarmaganligi uchun jarima va penyalarni to'liq miqdorda qarzdordan undirish huquqini bekor qilmaydi.

Aktivlar strukturasiga bank buxgalteriya balansining aktiv bo'limidagi barcha aktivlari kiradi.Aktivlarning birinchi navbatdagi qismi, ya'ni naqd pul mablag'lar mutloq likvid hisoblanadi. Bank kassasidagi naqd pullar bank majburiyatlarini qoplashda birinchi darajalirezerv bo'lib xizmat qiladi. Kassa qoldiqlari bank uchun daromad keltirmaydi va ularni sarflashxatardan xoli deb tasniflanadi. Kassa qoldiqlari bilan bank majburiyatlarini etarli tarzdata'minlab borish likvidlik ko'rsatkichining garovi hisoblanadi

Kreditlar bank aktivlarining asosiy qismini tashkil qiladi, ularning sifatini yaxshilash va risklarni kamaytirish bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, mijozlar kredit qobiliyatini puxta baholash, monitoring va boshqaruvni takomillashtirish zarur.

Hozirgi kunda xar bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiyo ko'rsatmalar beradi. Shu o'rinda kredit liniyalarini haqida to'xtalib o'tsak. Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma'lum. Birinchi usulning ahamiyati har bir ssuda individual tartibda ko'rib chiqilishidadir. Kredit ma'lum maqsaddagi mablag' ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga kredit ajratishda qo'llaniladi. Ikkinci usulda kredit bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo'yilgan kredit limiti bo'yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo'yilgan to'lov hujjatini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi. Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi.

Hozirgi kunda banklar amaliyotida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida stress testlari orqali bankning moliyaviy holatini baholashning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu usul likvidlik darajasi, operatsion faoliyat, bozor qiymati, boshqaruv va hatarlarni baholash tizimi kabi omillarning aktivlar samaradorligiga sezilarli ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, bank aktivlari samaradorligini oshirish dolzarb va murakkab vazifa bo'lib, banklar faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Riskni boshqarish tizimini takomillashtirish, investitsion portfeli diversifikatsiya qilish, yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va xodimlar malakasini oshirish kabi yo'nalishlar banklarga o'z aktivlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish yo'llari

Kredit portfeli diversifikatsiya qilish. Kredit portfeli bankning asosiy aktivlaridan biridir. Kreditlarni turli sektorlargataqsimlash, ya'ni, tijorat banki kreditlashni nafaqat korxonalarga, balki kichik va o'rtabizneslarga, shuningdek, xususiy shaxslarga ham taqdim etishi zarur. Shuningdek, risklarniminimallahtirish uchun kreditlarning tarkibida sifatli mijozlar va yuqori daromad keltiruvchisektorlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tijorat banklarining kredit portfelining sifatini oshirishda kreditlarning resurs ta'minoti muhim o'rinni tutadi, bunda banklar kreditlari uchun resurs ta'minotining eng barqaror qismi bo'lib, muddatli depozitlar va jamg'arma omonatlari hisoblanadi. Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini takomillashtirishga tuskinlik qilayotgan asosiy omil bo'lib, banklarda uzoq muddatli resurslarni yetishmasligi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2020 yil 12 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-soni "2020-2025 yillarga muljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.
2. O'zR Markaziy bankining 2022 yil yarim yillik uchun Moliyaviy barqarorlik sharxi, 27-bet.
3. Abduqodirov, N. (2020). Tijorat banklarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Karimov, O., & Tursunov, S. (2019). Bank aktivlarini boshqarish va samaradorligini oshirish. Moliyaviy jurnal, 4(2), 45-58.
5. Mamatqulov, B. (2021). Bank menejmenti va moliyaviy boshqaru. Toshkent: Moliyaviy akademiya nashriyoti.
6. Rashidov, A. (2018). Bank aktivlari va ularning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va moliya, 3(15), 23-30.
7. Вахабов, А.Б., & Хажибакиев, Ш.Х. (2021). Тижорат банклари активлари самарадорлигини ошириш йўллари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар.
8. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
9. [www.bankinfo.uz](http://www.bankinfo.uz)
10. [www.ipotekabank.uz](http://www.ipotekabank.uz)